

Germaniya Federativ Respublikasining O'zbekistondagi elchisi bilan uchrashuv



SMTda Germaniya Federativ Respublikasining O'zbekistondagi elchisi Gyunter Overfeld bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi aloqalarning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

Germaniya diplomatik missiyasining rahbari oxirgi ikki yil davomida Toshkent va Berlin aloqalari sezilarli darajada faollashganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 2018 yil yakuni bo'yicha 2017 yilga nisbatan 24,5 foizga o'sib, 700 million yevroni tashkil etgani alohida ta'kidlandi. Yaqin vaqt ichida ushbu ko'rsatgich 1 milliard yevroni tashkil etishiga Berlining ishonchi komil.



G.Overfeldning so'zlariga ko'ra, bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Germaniya Federativ Respublikasining hukumat va ishbiarmon doiralari O'zbekistondagi bugun amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni katta qiziqish bilan kuzatib bormoqda.

Shu bilan birga joriy yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Germaniyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi O'zbekiston-Germaniya hamkorligining asosiy yo'nalishlarini

yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Diplomatning aytishicha, Berlinda Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O'zbekistonga amalga oshiradigan tashrifiga muhim ahamiyat qaratgan.

Muzokaralarga Berlinda boshlangan yuqori darajadagi konstruktiv va o'zaro ishonchga asoslangan muloqotning davomi sifatida qaralmoqda va bu ikki davlat aloqalarining yanada chuqurlashishiga xizmat qiladi.